

ning holatlari va ulardan foydalanishni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan axborotni shakllantiradi.

Noishlab chiqarish sohasini aholiga xizmatlar bajaruvchi tarmoqlar tashkil qiladi. Bularga sog'likni saqlash, xalq ta'limi, san`at hamda davlat boshqarmalari va mudofaa muassasalari kiradi. Noishlab chiqarish sohasida, garchi unda amalga oshirilayotgan faoliyat takror ishlab chiqarishga yordamlashib, undagi mehnat ijtimoiy foydalik bo'lsa ham, ijtimoiy mahsulot yaratilmaydi.

Noishlab chiqarish sohasining tashkilotlari va muassasalari xo`jalik faoliyatları ularga davlat budgetidan ajratilgan mablag`larni o`zlarining funksiyalarini bajarishda samarali foydalanish boshqarishdan iborat. Shunday qilib, davlat sektorining noishlab chiqarish sohasida moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan ijtimoiy mahsulotni taqsimoti (qayta taqsimoti) va iste`moli sodir bo'ladi. Demak buxgalteriya hisobi shu sohaning tashkilotlari va muassasalariga ularning maqsadlariga muvofik ajratilgan mablag`larning mavjudligi va sarflanishi hakidagi axborotni shakllandiradi.

Moddiy boyliklarning noishlab chiqarish sohasida iste`mol qilinishi noishlab chiqarishning bir qismidir. Undan tashqari, noishlab chiqarishning iste`moliga shaxsiy iste`mol va jamiyat a`zolarining ehtiyojlarini qondirish ham kiradi. Shaxsiy iste`molni buxgalteriya hisobi bevosita o`z ichiga olmaydi. Lekin shaxsiy iste`mol buxgalteriya hisobida mutlaqo aks ettirmaydi deb o`ylash xatodir. Hakikatda, buxgalteriya hisobi uni aks ettiradi, lekin uni tavsiflash uchun zarur bo'lgan barcha ko`rsatkichlarga ega emas. Shaxsiy iste`mol to`g`risidagi ma`lumotlarni savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish korxonalari, xalq ta`limi, sog'likni saqlash muassasalari va boshqa hisobotlardan olish mumkin. Bu ma`lumotlar bo'yicha statistika shaxsiy iste`molni tavsiflovchi ko`rsatkichlarni aniqlaydi.

Ijtimoiy mahsulotni takror ishlab chiqarishdan tashqari buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish ham aks ettiriladi.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish buxgalteriya hisobida shu ishchi kuchini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan har xil xarajatlarni hamda ish haqqi va har xil turdagи xo`jaliklar daromadlarini ko`rinishidagi mablag`lar harakatini hisoblab topish yo`li bilan aqmrab olinadi. Ishchi kuchini tayyorlash xarajatlari, ish haqqini to'lash va xo`jaliklarning daromadlarini taqsimlash moddiy qiymatliklar va pul mablag`larini sarflashni anglatadi.

Ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish buxgalteriya hisobida mulkchilikning har xil shakllaridagi korxonalar fondlarining mavjudligi va harakatini aks ettirgan holda qayd qilinadi. Buxgalteriya hisobi takror ishlab chiqarish jarayonida ularning o`zgarishini ko`rsatib, mulkning rivojlanishini tavsiflaydi va shu bilan ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish haqida zarur ko`rsatkichlarni beradi.

Yuqorida aytilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, buxgalteriya hisobi predmetining asosiy mazmuni korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning xo`jalik faoliyatini amalga oshirishda foydalanadigan resurslarni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan axborotni shakllantirishdan iborat. Shu mablag`larning sarflanishi, ishlab chiqarish

xajmi va faoliyat natijalarini oqilona va to`g`ri boshqarish hozirgi vaqtida alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobining predmeti takror ishlab chiqarish jarayonidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning mablag`lari holati va ulardan foydalanishning samaradorligi hakida boshqarish masalalari uchun axborotni shakllantirish hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotda buxgalteriya hisobi predmetining boshqacha ta`riflari uchraydi. Masalan, uzoq vaqtlar davomida buxgalteriya hisobi predmeti deb kengaytirilgan takror ishlab chiqorish hisoblanar edi. Vaholanki, yuqorida aytilganlardan ko`rinib turibdiki, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning xammasi umuman xo`jalik hisobi tomonidan qamrab olingan, uning ayrim turlari esa jumladan, buxgalteriya hisobi shu jarayonning faqat ayrim tomonlarini aks ettiradi.

Buxgalteriya hisobining predmeti xo`jalikning ayrim uchastkalardagi ijtimoiy mexnat sarflaridir, degan da`volar xam mavjud edi. Lekin bu ta`rif ham to`g`ri emas. Eng avvalo, xo`jalik faoliyati faqat mehnat sarflari bilan cheklanmaydi: xo`jalik jarayonlari, shuningdek ijtimoiy mahsulotning harakati bilan tavsiflanadi. Undan tashqari, ijtimoiy mehnat sarflari buxgalteriya hisobida bevosita umuman aks ettirilmaydi. Ular qiymat shaklida ho`jalik mablag`larining xar xil turlari va resurslarining harakati sifatida ko`rsatiladi. Ijtimoiy mexnat sarflari ustidan bevosita kuzatuv tezkor va eng muhimi, buning uchun o`ziga xos ko`rsatkichlarga ega bo`lgan statistika hisobi tomonidan olib boriladi.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Uzbekiston: bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo`li. - T. Uzbekiston, 1995.
2. Karimov I.A. Uzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. - T. Uzbekiston, 1995.
3. M. Ostonakulov. Buxgalteri hisobi nazariyasi. Toshkent "Uzbekiston" 1993 y.
4. M. Umarova, U. Eshboyev, K. Axmadjonov. Buxgalteriya hisobi. Toshkent "Mexnat" 1999 y.
5. www.ziyonet.uz

ДАВЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРДА ТРАНСЧЕГАРАВИЙ КИЧИК ДАРЁЛАР ОМИЛИ

Каримов Нуриддин Қурбон ўғли
Фавқулодда вазиятлар вазирлиги Академияси ҳузуридаги
Фуқаро мухофазаси институты магистранти

Анотация: Ушбу мақолада Давлатлараро муносабатларда трансчегаравий кичик дарёлар омили масалалари ёритилган.

Anatasia: This article covers the issues of the factor of transboundary small rivers in interstate relations.

Калит сўзлар: Трансчегаравий кичик дарёлар, давлатларнинг ўзаро муносабатлари, трансчегаравий сувлар омили, сув ресурслари, музликлар, қорликлар, сойлар, кичик дарёлар.

КИРИШ:

Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш шартшароитларида энг муҳим аҳамиятга эга бўлган вазифалардан бири мамлакатда сув хавфсизлигини таъминлашдир. Чунки, республикада сув ресурслари танқислигининг пайдо бўлиши, миллий манфаат ва хавфсизликка тўғридан-тўғри таҳдид сифатида қабул қилинади.

Ўзбекистон аҳолиси сони, саноатнинг қуввати ва қишлоқ хўжалигида суфориладиган ерлар майдонининг катталиги сабабли Марказий Осиё давлатлари орасида сув ресурсларига кўпроқ эҳтиёж сезадиган мамлакат ҳисобланади. Бундан ташқари, бугунги кунда минтақа давлатларида сув ресурсларининг нотекис тақсимланганлиги билан боғлиқ мұаммолар мавжуд. Бундай шароитда, Ўзбекистон Республикасида аҳолини ичимлик суви билан тамиллаш, турли саноат тармоқлари ва табиий экотизимнинг сувга бўлган эҳтиёжини тўлиқ қондириш масаласининг долзарблиги ошиб бормоқда. Ўз навбатида, республика иқтисодиётининг изчил ва барқарор ривожланиши барча тармоқлар ва аҳолини ўз вақтида, керакли ҳажмда ва сифатли сув ресурслари билан таъминлашга боғлиқдир. Марказий Осиё минтақасида сўнгги 30 йил ичиде асосий эътибор ва ҳаракатлар Орол денгизи ҳавзасининг Амударё ва Сирдарё каби йирик трансчегаравий дарёларининг сув ресурсларини ҳамкорликда бошқариш ва фойдаланиш мұаммоларини ечишга йўналтирилди. Бироқ, олиб борилган саъии-ҳаракатларга қарамай, бугунги кунда бу масала ҳам тўлиқ тартибга келтирилмаган. Шундай экан шубҳасизки, минтақанинг Сирдарё ва Амударё ҳавзасидаги трансчегаравий кичик дарёларнинг сув ресурсларини қўшни республикалар билан ҳамкорликда бошқариш масаласи ўз-ўзидан долзарб ҳисобланади. Зоро, дарё ҳавзаси ягона бир тизим бўлиб, тизим